
HASHARDA BARCHA UYUSHQOQLIK BILAN ISHTIROK ETMOQDA

Mustaqilligimizning 33 yilligi oldidan tumanimizdagi barcha mahallalarda, tashkilot va muassasalarda tozalash va obodonlashtirish ishlari uyushqoqlik bilan olib borilmoqda.

Hashar doirasida mahallalar, aholi punktlari, ko'p qavatli uylar, binolar, ziyoratgoh va qabristonlar, ariqlar hamda bolalar maydonchalari tartibga keltirilib, daraxtlarni oqlash va shakl berish ishlari bajarildi.

Xususan, xayriya hasharining ilk kunida tuman bo'yicha 18397 ming nafar aholi, shundan 5440 mingdan ortiq yoshlar obodonlashtirish ishlarida ishtirok etdilar.

Hashar davomida 201 gektarga yaqin maydon obodonlashtirib, 213 ming tonna maishiy chiqindilar chiqarilib tashlandi. 80 km ariq va lotoklar tozalandi. 66 ta qabriston, 7 ta ziyoratgohlar obodonlashtirildi. 17548 ming tupga yaqin daraxtlarga shakl berilib oqlandi.

Bu jarayonda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi ishchi-xodimlari ham ishtirok etib, tumanimiz obodligiga munosib xissa qo'shmoqdalar.

2024-08-26 05:18:44